

# FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSIYA: ONA TILI, O'QISH VA MATEMATIKA DARSLARIDA “QUMSOAT” USULIDAN FOYDALANISH SAMARASI

Kobilova Surayyo A'zamjonovna

Andijon shahar 5-umumta'lim maktabi Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta'lim maktablarining boshlang'ich ta'lism poydevor sanalishini va albatta ushbu sohada innovatsiya muhim ahamiyat kasb etishi haqida fikr-mulohazalar keltirib o'tilgan.

**Ushbu maqolani yozishdan maqsad:** boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuvni tashkil etish va “Qumsoat” usulidan samarali foydalanishga undash.

**Natija:** Mavzular qiziqarli va bahslarga boy tarzda tashkil etiladi, o'quvchilarning xushyorligi oshiriladi hamda do'stona munosabatlar o'rnatiladi.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, izlanish, yangilik, usullar, didaktik va ta'limiyl o'yinlar.

Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni... aynan innovatsion g'oyalar asosida boshlashimiz kerak. Innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot yo'liga o'tishimiz bejiz emas. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi<sup>1</sup>.

Sh.M.Mirziyoyev

Yurtboshimiz ta'kidlaganlaidek, innovatsiya, ilm-ma'rifat yurt taraqqiyotini belgilab beruvchi vositalardan biri bo'lib, bunda izlanish, yangilik yaratish muhim ahamiyatga ega. Jumladan, ta'lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish, chuqurlashtirish, bu mazmunga nafaqat bilim, ko'nikma, malaka, balki

---

<sup>1</sup> . Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. – T.2018, 19-20-betlar

## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

umumisoniy madaniyatni tashkil etuvchi ijodiy faoliyat tajribasi, tevarak - atrofga munosabatlarni ham kiritish g'oyasi samara beradi. Ilg'or pedagogik, ijtimoiy tajribalar pedagogik mahoratni shakllantirishda, ayniqsa, boshlang'ich ta'linda innovatsiya yaratishda muhim omildir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, yangi pedagogik texnologiyalarning asosiy jihatni darslarda didaktik va ta'limiylar o'yinlardan foydalanish, yangi usullarni izlab toppish hamda mavzularni yuksak darajada, yuqori saviyada o'quvchiga yetkazishdir. Zero, bugunning dolzarb muammolaridan biri ta'lim tizimi sifatini yaxshilash, boshlang'ich ta'linda innovatsiya yaratish hamda o'quvchilarga sifatli ta'lim berishdan iboratdir. Buning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan innovatsion metodlardan unumli foydalanish, to'g'ri tanlov va o'quvchilarda qiziqish uyg'otish talab etiladi. Bunda pedagog ko'proq o'z ustida ishlashi, yangi interfaol metodlarni izlab topishi, o'quvchi qalbiga kirib borishi muhim. O'qitishning innovatsion usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchining soni va imkoniyatlari, moddiy texnik baza sharoiti, o'qituvchining pedagogik mahorati inobatga olinadi. Xo'sh, innovatsiya nima? Mazkur atamaning boshlang'ich ta'lindagi o'rni qanday? Shu kabi savollarga javob topish uchun ilmiy faktlar va qo'shimcha adabiyotlarga tayanamiz.

Innovatsiya-yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan xizmat yoki jarayon sanalib, mazkur atama "yangilanish" (yoki "o'zgarish") degan ma'noni anglatadi. "Innovatsiya" tushunchasi "yangilik", "kashfiyat", "ixtiro" so'zlari bilan sinonimlik hosil qiladi va ular ma'no jihatidan farq qilsa-da, har holda, bu tushunchalarning barchasi natija-ijodiy faoliyat, ijodkorlik bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, mutaxasislarning fikricha, agar ijodkorlik yangi g'oyalarni ilgari surishni nazarda tutsa, u holda innovatsiyaning o'ziga xos belgisi uni amalda amalga oshirishdir<sup>2</sup>.

Bundan ko'rindiki, biz boshlang'ich ta'linda muntazam ravishda yangilik yaratishimiz zarur ekan. Bugungi kunda o'qitish metodlariga innovatsiya aktiv, passiv va interaktiv metodlarining kirib kelishi ta'lim samaradorligini belgilab beradi. Chunki, aktiv metodlarni qo'llash ilk maktab ostonasiga qadam qo'ygan hamda bilimga tashna boshlang'ich sinf o'quvchilarini dars jarayonidagi faolligini oshirishga xizmat qiladi. Dars shakliga innovatsiyani kirib kelishini standart, nostandart hamda

<sup>2</sup> Степанова И.П. Инновацион менежмент.- Саратов-2014.

## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

virtual dars shakllari misolida ko‘rishimiz mumkin. O‘qitish turlaridagi innovatsiyani muammoli ta’lim, evristik ta’lim, darajalangan ta’lim, integratsiyalangan ta’lim, interfaol ta’lim, informal ta’lim, rasmiy ta’lim, norasmiy ta’lim turlari mavjud. Bunda o‘qitish vositalariga innovatsiyani kirib kelishini dars jarayonida multimedia, elektron doskalar va boshqa vositalarni misol qilish mumkin. Biz faqat tayyor innovatsiyalardan emas, balki, o‘zimiz ham o‘quvchilarga tanish atamalardan usul sifatida qo‘llasak, dars mashg‘ulotlarini yanada samarali tashkil etishga erishamiz. Quyida o‘z tajribamda ona tili, o‘qish va matematika darslarida bir usuldan, ya’ni “**Qumsoat**” metodidan foydalanish samarasini ko‘rsatishni joiz topdim. Chunki, qumsoat biroz tarixiy bo‘lsada, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tezlikka, xushyorlikka, mustaqil izlanishga, do‘stona munosabatlarni o‘rnatishga xizmat qiladi. Biz boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari mazkur usulni ko‘pincha o‘quvchilarimizning o‘qish tezligini oshirishda foydalanamiz. Bunda qumsoatning bir qismidagi qum tugaguncha o‘quvchilar o‘qish tezligiga rioya qilgan holda o‘qishlari talab etiladi. Men esa o‘z tajribamda “**Qumsoat**” usulini usul ichida usul shaklida foydalandim. Bunda o‘qish darslarida beriladigan topshiriqlarni guruhlarda shu vaqt oralig‘ida, ya’ni qumsoatdagi qumni tugashiga qarab bajarishga o‘rgatdim.

Har bir guruhgaga bir xil topshiriq berib, ularning mavzuni o‘zlashtirganlik darajasini va albatta xotirasini qumsoatning bir qism qumi tugaguncha sinaladi. **Masalan:** o‘qish darsida o‘rganilgan biror she’r misralari o‘zgartirilgan holda jadval taqdim etiladi. O‘quvchilar belgilangan muddatda she’rni tiklashlari kerak bo‘ladi. Ushbu “**She’rni tikla**” usuli yana bir innovatsion usul sifatida e’tirof etiladi.

### LOLA

### Ilyos Muslim (3-sinf)

Ko‘m-ko‘k bo‘ldi bog‘, dala. (2)

Bahor keldi elimizga, (1)

Terib keldik gul-lola. (4)

Sevinch to`lib dilimizga, (3)

Mazkur usulning natijaviyligi shundaki, bunda o‘quvchilarning ziyraklik sinaladi, bir eshitgandan eslab qolish ko‘nikmasi sinovdan o‘tkaziladi, she’rni mantiqan davomini topish malakasi rivojlantiriladi hamda she’r yozish uslubini o‘rganadi. Shuningdek, “**Qumsoat**” usulini guruhlarda yoki yakka tartibda o‘tilgan

## FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

mavzularni mustahkamlash qismida ham qo'llash samara beradi. Bunda qumsoatdagi tegishli qum tugaguncha o'quvchilar husnixat qoidalariga riosa qilgan holda so'zlarni so'roqlar yordamida guruhlarga bo'lishadi. Qizil, ko'za, o'n, soch, Gulsara, kuldi, katta, yetti, bodom, ochildi, shirin, beshta, uxladi, ishchi, Zebiniso

Kim ?	Nima ?	Nima qilya?	Qanday?	Nechta ?
Gulsara	Ko'za	Ochildi	Qizil	Beshta
Ishchi	Soch	Uxladi	Shirin	Yetti
Zebiniso	Bodom	Kuldi	Katta	O'n

Bundan tashqari, matematika darslarida ham "Qumsoat" usuli samaralidir. Bunda o'quvchilarning matematik savodxonligi, mantiqiy topshiriqlarni to'g'ri bajara olish ko'nikmasi shakllantiriladi.

**5-masala:** Bobo 56 yoshda, nabirasi 14 yoshda. Necha yildan keyin bobo nabirasidan ikki marta katta bo'ladi? Tanlash usuli bilan yeching.

Javob: 1) bobo va nabira yoshlaring farqi -  $56-14 = 42$  (yosh);  
2) nabira 42 yosh bo'lganida boboning yoshi -  $42 + 2 = 84$  (yosh);  
3) bobo 84 yosh, nabira 42 yosh bo'lguncha o'tadigan vaqt -  $84 - 42 = 42$  = 28 (yil).

Mazkur masala ham aynan belgilangan vaqtida bajarilishi lozim. Shundagina o'quvchilarda tezkorlik, darsda faol ishtirok etish ko'nikmasi shakllanadi.

Xullas, O'zbekistonda ham so'nggi yillarda innovatsiya boshqa sohalarga qaraganda birinchilardan bo'lib ta'lim tizimiga kirib keldi va innovatsiyani ta'lim jarayonida qanday o'z aksini topganligini yuqorida gilar misolida ko'rishimiz mumkin.

# FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.2018, 19-20-betlar
2. Степанова И.П. Инновацион менежмент.- Саратов-2014
3. A'zamovA., YusupovA."O'quvchilarga bilim berishda innovatsion usullardan foydalanish" Toshkent.2002-yil
4. Xalikovna, R. D. (2023). Teaching Vocabulary Through Word Games. Central Asian Journal of Social Sciences and History, 4(6), 136-144.